



UDK: 1.71.42.41

Shukurullo XAMIDOV,
Mustaqil izlanuvchi, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona, O'zbekiston
Orcid: <https://orcid.org/0009-0003-8543-0025>

Farg'ona davlat universiteti professori A.Abdumalikov taqrizi ostida

JAMIYATDA KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY OMILLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida kiberxavfsizlikni ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy omillari tahlil qilingan. Kiberxavfsizlikning nazariy asoslari, zamonaviy kiberxavflarning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri hamda ularni bartaraf etishda raqamli savodxonlik, axloqiy madaniyat, huquqiy ong va fuqarolik mas'uliyatining o'rni yoritilgan. Shuningdek, davlat, jamiyat va shaxs hamkorligining kiberxavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Kiberxavfsizlik, axborotlashgan jamiyat, axborot xavfsizligi, raqamli madaniyat, kiberjinoyatchilik, sun'iy intellekt, raqamli savodxonlik, ijtimoiy falsafa.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ФАКТОРЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ В ОБЩЕСТВЕ

Аннотация

В статье анализируются социально-философские факторы обеспечения кибербезопасности в условиях информационного общества. Освещаются теоретические основы кибербезопасности, влияние современных киберугроз на развитие общества, а также роль цифровой грамотности, правового сознания, нравственной культуры и гражданской ответственности в их предотвращении. Особое внимание уделяется сотрудничеству государства, общества и личности в обеспечении кибербезопасности.

Ключевые слова: Кибербезопасность, информационное общество, информационная безопасность, цифровая культура, киберпреступность, искусственный интеллект, цифровая грамотность, социальная философия.

SOCIO-PHILOSOPHICAL FACTORS OF ENSURING CYBERSECURITY IN SOCIETY

Annotation

This article analyzes the socio-philosophical factors of ensuring cybersecurity in the information society. The theoretical foundations of cybersecurity, the impact of modern cyber threats on social development, and the role of digital literacy, ethical culture, legal awareness, and civic responsibility in preventing cyber threats are examined. The importance of cooperation between the state, society, and individuals in ensuring cybersecurity is also highlighted.

Key words: Cybersecurity, information society, information security, digital culture, cybercrime, artificial intelligence, digital literacy, social philosophy.

Kirish. XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi. Internet tarmog'i, sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat tizimlari zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylandi. Natijada inson faoliyatining deyarli barcha yo'nalishlari raqamlashtirilmogda. Biroq ushbu jarayon yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda yangi tahdidlarni ham yuzaga keltirmogda. Bugungi kunda kiberxavfsizlik masalasi milliy xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy taraqqiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda.[1] Kiberhujumlar, shaxsiy ma'lumotlarning o'g'irlanishi, dezinformatsiya va kiberjinoyatchilik holatlarining ortib borishi kiberxavfsizlikni ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy asoslarini chuqur o'rganishni talab etadi. Mazkur maqolaning maqsadi axborotlashgan jamiyatda kiberxavfsizlikni ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy omillarini tahlil qilish hamda ularning jamiyat rivojlanishidagi ahamiyatini ochib berishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillaridan foydalanildi. Shuningdek, axborotlashgan jamiyat va kiberxavfsizlik muammolariga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar o'rganildi.

Materiallar va metodlar. Mazkur tadqiqot jamiyatda kiberxavfsizlikni ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy omillarini

tizimli ravishda tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, unda sifat (qualitative) tadqiqot metodologiyasi qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini axborot jamiyati, raqamli transformatsiya, axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik, raqamli madaniyat va raqamli fuqarolik konsepsiyalariga oid mahalliy hamda xorijiy ilmiy adabiyotlar tashkil etdi.

Tadqiqot materiallari sifatida kiberxavfsizlik va axborot xavfsizligiga bag'ishlangan monografiyalar, ilmiy maqolalar, O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, BMT, UNESCO, ITU (International Telecommunication Union), INTERPOL hamda boshqa xalqaro tashkilotlarning kiberxavfsizlik bo'yicha meyoriy-huquqiy hujjatlar va tahliliy hisobotlaridan foydalanildi[3]. Shuningdek, zamonaviy raqamli jamiyatda shaxs, davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining kiberxavfsizlikni ta'minlashdagi o'rniga doir ilmiy manbalar ham tadqiqot materiallari qatoriga kiritildi.

Tadqiqot davomida bir qator umumilmiy va maxsus ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, tizimli yondashuv (system approach) asosida kiberxavfsizlikning texnologik, huquqiy, axloqiy, madaniy va ijtimoiy komponentlari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Ijtimoiy-falsafiy tahlil metodi orqali kiberxavfsizlikning jamiyat taraqqiyoti, inson qadriyatlarini

axborot erkinligi va raqamli ishonch bilan uzviy aloqasi ochib berildi[4].

Tadqiqotning metodologik asosini axborot jamiyati nazariyasi, tavakkalchilik jamiyati (Risk Society) konsepsiyasi, tarmoq jamiyati (Network Society) nazariyasi hamda raqamli etika tamoyillari tashkil etdi. Ushbu metodologik yondashuv jamiyatda kiberxavfsizlikni faqat texnik muammo sifatida emas, balki ijtimoiy ong, huquqiy madaniyat, axloqiy mas'uliyat, raqamli savodxonlik va fuqarolik faolligi bilan uzviy bog'liq bo'lgan kompleks ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida tahlil qilish imkonini berdi.[5]

Muhokama va Natijalar. Kiberxavfsizlik zamonaviy axborotlashgan jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim ijtimoiy institutlardan biri bo'lib, axborot tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va raqamli resurslarni noqonuniy kirish, o'zgartirish, yo'q qilish hamda boshqa turdagi tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan tashkiliy, huquqiy va texnologik choralar majmuasini anglatadi. Axborotlashgan jamiyat nazariyasining yirik vakillaridan biri M. Kastels ta'kidlaganidek,[9] tarmoq jamiyatida axborot strategik resursga aylanadi va uning xavfsizligi jamiyat taraqqiyoti, davlat suvereniteti hamda fuqarolarning fundamental huquqlarini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Shu bois kiberxavfsizlik maxfiylik, yaxlitlik, mavjudlik, autentifikatsiya va javobgarlik tamoyillariga tayanadi. Raqamli transformatsiya axborot almashinuvini tezlashtirgan bo'lsa-da, u bilan bir qatorda kiberjinoyatchilik, kiberterrorizm, dezinformatsiya va shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishi kabi yangi xavf-xatarlarni ham yuzaga keltirdi[7]. Mazkur tahdidlar nafaqat axborot infratuzilmasi, balki jamiyatning siyosiy barqarorligi, iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy ishonchiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Kiberxavfsizlikni samarali ta'minlash texnik vositalar bilan cheklanmay, avvalo, jamiyatning ijtimoiy tayyorgarligi va raqamli madaniyatiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan, fuqarolarning raqamli savodxonligini oshirish, axborot texnologiyalaridan xavfsiz foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish hamda kiberxavfsizlik madaniyatini rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi[8]. Kiberxavfsizlik madaniyati internet etikasi, axborotdan mas'uliyatli foydalanish va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish tamoyillariga amal qilishni o'z ichiga oladi. Bunda ta'lim tizimining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi, chunki umumiy va oliy ta'lim muassasalarida kiberxavfsizlikka oid bilim va kompetensiyalarni shakllantirish yoshlarning zamonaviy raqamli muhitga moslashuvini ta'minlaydi. Shuningdek, har bir foydalanuvchining internetdagi faoliyati uchun shaxsiy javobgarlikni anglashi, axborot xavfsizligi qoidalariga rioya qilishi va raqamli makonda mas'uliyatli xulq-atvorni namoyon etishi kiberjinoyatchilikning oldini olish hamda jamiyatda barqaror va ishonchli raqamli muhitni shakllantirishning muhim ijtimoiy-falsafiy omili hisoblanadi.

Kiberxavfsizlik bugungi kunda nafaqat texnologik, balki axloqiy-falsafiy muammo sifatida ham e'tirof etilmoqda. Raqamli makonning kengayishi insonning axborotdan foydalanish erkinligi, shaxsiy hayot daxlsizligi va jamiyat xavfsizligi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zaruratini yuzaga keltirdi[9]. Demokratik jamiyatlarda axborot erkinligi insonning asosiy huquqlaridan biri sifatida qaralsa-da, ushbu erkinlik milliy xavfsizlik, jamoat tartibi va fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish talablari bilan uyg'unlashtirilishi lozim. Shu nuqtai nazardan, kiberxavfsizlik axborot erkinligini cheklash emas, balki undan mas'uliyatli foydalanish tamoyillarini qaror toptirishga xizmat qiladi[10]. Shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi, maxfiylikning ta'minlanishi va raqamli makonda inson qadr-qimmatining saqlanishi zamonaviy axborot etikasi va falsafasining muhim

yo'nalishlariga aylangan. Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi esa kiberxavfsizlikni yangi bosqichga olib chiqib, algoritmik diskriminatsiya, shaffoflikning yetishmasligi, shaxsiy ma'lumotlardan noqonuniy foydalanish hamda avtomatlashtirilgan qarorlarning axloqiy javobgarligi kabi murakkab masalalarni kun tartibiga olib chiqmoqda. Shu sababli kiberxavfsizlikni axloqiy meyorlar, inson huquqlari va raqamli etika tamoyillari bilan uyg'un holda rivojlantirish zamonaviy jamiyatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kiberxavfsizlikning samaradorligi huquqiy mexanizmlarning mukammalligi va ularning amaliyotda izchil qo'llanishiga bevosita bog'liq. Zamonaviy raqamli makonda kiberjinoyatchilikning transmilliy tus olishi davlatlardan yagona huquqiy yondashuv va xalqaro hamkorlikni talab etmoqda. Shu bois kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, elektron tijorat xavfsizligini ta'minlash, sun'iy intellekt faoliyatini huquqiy tartibga solish hamda xalqaro axborot almashinuvini mustahkamlash kiberxavfsizlik siyosatining ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. Huquqiy tartibga solish nafaqat noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish, balki fuqarolarning axborot makonidagi huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar tez sur'atlarda rivojlanayotgani sababli mavjud qonunchilikni muntazam ravishda takomillashtirib borish, yangi texnologik tahdidlarga mos normativ-huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish hamda xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka integratsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi[11]. Bunday yondashuv davlatning raqamli suverenitetini mustahkamlash, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va fuqarolarning raqamli muhitga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Kiberxavfsizlikni ta'minlash davlat, jamiyat va shaxsning o'zaro hamkorligiga asoslangan kompleks tizimni talab etadi. Davlat milliy kiberxavfsizlik strategiyasini ishlab chiqish, muhim axborot infratuzilmasini himoya qilish, kiberjinoyatchilikka qarshi samarali kurashish va malakali mutaxassislarni tayyorlash orqali ushbu tizimning institutsional asoslarini yaratadi. Jamiyat esa raqamli madaniyatni rivojlantirish, fuqarolarni kiberxavflar haqida muntazam xabardor qilish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va axborot xavfsizligi bo'yicha ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Har bir shaxs esa axborot xavfsizligi qoidalariga rioya etishi, shaxsiy ma'lumotlarini ishonchli himoya qilishi, internetdan mas'uliyat bilan foydalanishi va raqamli etikaga amal qilishi orqali umumiy kiberxavfsizlik tizimining faol ishtirokchisiga aylanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kiberxavfsizlikning barqarorligi faqat zamonaviy texnik vositalarga emas, balki jamiyatning raqamli savodxonligi, huquqiy ongi, axloqiy qadriyatlar va inson kapitalining rivojlanish darajasiga ham bevosita bog'liq[12]. Shu bois kiberxavfsizlikning ijtimoiy-falsafiy mohiyati inson, jamiyat va davlat manfaatlarini o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, raqamli ishonchni mustahkamlash hamda xavfsiz axborot makonini shakllantirish orqali barqaror taraqqiyotga xizmat qilishida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, axborotlashgan jamiyat sharoitida kiberxavfsizlikni ta'minlash faqat texnik va dasturiy vositalarni takomillashtirish bilan cheklanmaydi. Zamonaviy raqamli makonda xavfsizlikni ta'minlashning asosiy omillari sifatida raqamli savodxonlikni rivojlantirish, fuqarolarning huquqiy ongi va axborot madaniyatini yuksaltirish, shuningdek, axloqiy mas'uliyat tamoyillarini qaror toptirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kiberxavfsizlikning ijtimoiy-falsafiy mohiyati inson, jamiyat va davlat manfaatlarini o'rtasida muvozanatni ta'minlash, axborot erkinligi bilan xavfsizlik talablarini uyg'unlashtirish

hamda raqamli makonda ishonchli hamkorlik muhitini shakllantirishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, davlat tomonidan samarali normativ-huquqiy bazani yaratish, ta'lim tizimida kiberxavfsizlik kompetensiyalarini rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Jamiyat esa kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish, dezinformatsiyaga qarshi tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va fuqarolarning raqamli mas'uliyatini oshirish orqali ushbu jarayonda faol ishtirok etishi zarur. Har bir shaxsning shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, axborot xavfsizligi qoidalariga rioya etish va internetdan mas'uliyat bilan foydalanishga oid

ko'nikmalari umumiy kiberxavfsizlik tizimining muhim bo'g'inini tashkil etadi. Demak, kiberxavfsizlikni ta'minlashning samarali modeli davlat, jamiyat va shaxsning o'zaro hamkorligiga asoslangan kompleks yondashuvni, zamonaviy texnologiyalarni ijtimoiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishni hamda inson kapitalini rivojlantirishni talab etadi. Aynan shunday yondashuv axborotlashgan jamiyatning barqaror taraqqiyotini, milliy manfaatlar himoyasini va raqamli makonda xavfsiz hamda ishonchli muhitni ta'minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Aripov M.M. Axborot xavfsizligi asoslari. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. – 256 b.
2. Aripov M.M., Marzayev B.S. Axborot xavfsizligi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 312 b.
3. Sodiqov A.A. Raqamli iqtisodiyot va axborot xavfsizligi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2022. – 198 b.
4. Tulyaganov Sh.E. Kiberxavfsizlik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 224 b.
5. To'rayev A.X. Axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi. – Toshkent: Tafakkur, 2020. – 240 b.
6. O'zbekiston Respublikasi. "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2022.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida: PF-6079-son Farmon. – Toshkent, 2020.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlashga oid qarorlar to'plami. – Toshkent, 2023.
9. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishing, 2010. – 597 p.
10. Floridi L. The Ethics of Information. – Oxford: Oxford University Press, 2013. – 353 p.
11. Beck U. Risk Society: Towards a New Modernity. – London: SAGE Publications, 1992. – 260 p.
12. Singer P.W., Friedman A. Cybersecurity and Cyberwar: What Everyone Needs to Know. – New York: Oxford University Press, 2014. – 312 p.
13. Stallings W., Brown L. Computer Security: Principles and Practice. 4th ed. – Boston: Pearson, 2018. – 864 p.
14. National Institute of Standards and Technology. Cybersecurity Framework 2.0. – Gaithersburg: NIST, 2024.
15. International Telecommunication Union. Global Cybersecurity Index 2024. – Geneva: ITU, 2024.